

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SHUKURBOYEVA OZODA NASRIDDIN QIZI

**O‘QUVCHILARDA BADIY ASARLARNI TAHLIL QILISH
LAYOQATINI SHAKLLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

UO‘K: 373.091.3:821.512.133.09

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstracts of the Doctor of
Philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

Shukurboyeva Ozoda Nasriddin qizi

О‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish 5

Shukurboyeva Ozoda Nasriddin qizi

Developing students’ ability to analyze literary works.....25

Шукурбоева Озода Насриддин қизи

Формирование у учащихся способности анализировать художественные произведения 47

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works 53

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SHUKURBOYEVA OZODA NASRIDDIN QIZI

**O‘QUVCHILARDA BADIY ASARLARNI TAHLIL QILISH
LAYOQATINI SHAKLLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5260 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsuul.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Niyozmetova Roza Xasanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Valijon Abdurahmonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yuldasheva Nilufar Abdullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

(Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44 (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ da tarqatildi.

(2026-yil _____ dagi № _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

S. Ashirboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,
fil.f.d., professor

Q. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi,
fil.f.d., professor

S. Muhamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi,
fil.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, badiiy asarlar tahlili orqali o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, matn ustida ishlashda madaniy-kontekstual yondashuv hamda mustaqil o'qish motivatsiyasini oshirishga doir tendensiyalar kuzatilmoqda. Adabiyot o'qitishning zamonaviy metodikalarini joriy qilish va badiiy asarlarni tahlil qilish usullarini takomillashtirishga oid izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonda Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya kabi rivojlangan davlatlarda dialogik o'qish, multimodal tahlil, AQSH, Singapur, Janubiy Koreyada metakognitiv strategiyalar, Finlandiya, Niderlandiya kabi davlatlarda esa konstruktivistik yondashuvlardan keng foydalanilmoqda. Bu harakatlar zamirida o'quvchini mantiqiy fikrlovchi, yuksak didli, madaniyatlararo muloqotga layoqatli shaxs sifatida shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda adabiy matn ustida ishlash, badiiy asarlar bilan samarali muloqot qilish yo'llarini izlash, ularni o'quvchilarga yetkazishning yangi usullarini tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Axborotlashuv davrida irodasi sust va mustaqil fikri yetarlicha shakllanmagan o'quvchilarning internetga qaramligi oqibatida yuzaga kelayotgan, ilmiy adabiyotlarda "Zamonaviy Maugli sindromi" sifatida izohlanayotgan murakkab psixopatologik holat kuzatilmoqda. Bu esa badiiy asar mutolaasi va tahlili orqali keng dunyoqarashni rivojlantirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, ma'lumot oqimining kuchayishi va media vositalarining ta'limga ta'siri sharoitida o'quvchilarni mutolaaga qiziqtirish, badiiy matn namunalari bilan ishlash, ularda idrok etish va tushunish, tahlil qilish layoqatini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Respublikamizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish, badiiy asarlarni o'rganishga doir zamonaviy yondashuvlarni joriy etish masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarga badiiy tahlil asoslari, mutolaa madaniyati fan sifatida o'qitilmoqda. Uzlüksiz ta'limning "Milliy o'quv dasturi"da adabiyot o'qitishga davr talablari asosida yondashilayotgani, darsliklar mazmuni jahon ta'lim standartlari talablariga moslanayotgani, adabiy matnni o'rganishga oid o'quv topshiriqlari bilan boyib borayotgani o'quvchilarda anglash va tahlil qilish layoqatini shakllantirish bilan bog'liq dolzarb masala ekanini ko'rsatadi. "Ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish"¹ ga qaratilgan vazifalar har qanday muammoga yechim topa oladigan, mustaqil fikrlaydigan, inson ruhiy olamini, qalbini chuqur anglaydigan hamda ijtimoiy-psixologik munosabatlarda faol qatnasha oladigan shaxsni tarbiyalash, adabiyot metodikasini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6008663> 2022.11.05.

rivojlantirish, o'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2025-yil 19-martdagi PF-51-son "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz metodist olimlari A.Zunnunov, M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, G.Xolboyevalarning ilmiy izlanishlari badiiy asarlarni tahlil qilish masalasiga bag'ishlangan. Ularda tahlilning nazariy-metodik asoslari, o'quvchilarning matnni anglash va ifodalash malakalarini shakllantirish, estetik tarbiyasi va hissiy idrokini rivojlantirish muammolari o'rganilgan². S.Dolimov, S.Matchonov, B.To'xliyev, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov, S.Kambarova, K.Mavlonova, R.Tillayeva, M.Tursunova, H.Jo'rayev³ kabi olimlar esa o'z qarashlarida adabiyot o'qitishning

² Зуннунов А. Бадий асарни ўқишни ўрганиш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – 37 б.; Зуннунов А. Бадий асар таҳлили методикаси. Қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 120 б.; Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари: Пед. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 1995. – 252 б.; Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-метodik асослари: Пед. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.; Холбоева Г. Халқ оғзаки ижоди асарлари таҳлили оркали ўқувчиларда миллий кадриятларни шакллантириш тамойиллари: Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 123 б.

³ Долимов С. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 448 б.; Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш: Пед. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1998. – 308 б.; Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 157 б.; Хусанбойева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-метodik асослари: Пед. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниёзметова Р. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари: Пед. фан. д-ри... дисс. – Тошкент: 2007. – 242 б.; Қодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-метodik асослари: Пед. фан. д-ри (DSc) ... дисс.. – Наманган, 2019. – 271 б.; Kambarova S. Adabiyotni o'quv fani va san'at turi sifatida o'qitish metodologiyasi: Ped. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Toshkent, 2024. – 254 b.; Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. b. fals. dok.

ilmiy-nazariy asoslari, tahlil jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, unga interaktiv metodlar hamda innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslanish, o'quvchining shaxs sifatida badiiy asardan ta'sirlanish mexanizmini rivojlantirish muammolarini aks ettirishgan. Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ham badiiy asarlar tahliliga oid zamonaviy qarashlar ko'zga tashlanadi⁴.

MDH davlatlari olimlaridan: Z.Rez, P.Galperin, V.Golubkov, G.Belenskiy, V.Maransman, M.Zaldiner, Y.Lotman, G.Taranosov, E.Beznosov, O.B.Mar'ina va boshqalar tomonidan badiiy asarlarni tahlil qilishning nazariy-metodik hamda psixologik-pedagogik asoslari, o'quvchilarda tahlil ko'nikmalarini shakllantirish usullari va matnni idrok etish, interpretatsiya qilish bosqichlari o'rganilgan⁵.

Xorij olimlari M. Smuck, P. Bloom, E. Janet, H. Gardner, J.Diaz, J. Adler, V.Doren kabi olimlar badiiy asarni psixologik, kognitiv, estetik va metodik jihatdan tahlil qilish tamoyillarini rivojlantirish yo'lida izlanishgan⁶. Jumladan, Melissa Smuck adabiy tahlilda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va matnni idrok etish ko'nikmalarini, Paul Bloom badiiy asarni anglashda empatiya va kognitiv jarayonlarni, E.Janet ushbu jarayonda psixologik yondashuv, obrazlarning ichki holatini, Joanne Diaz she'riy matn tahlilini, Howard Gardner, Mortimer John Adler va Charles Van Dorenlar esa asarlarni chuqur o'rganish, bu jarayonda estetik va lingvistik intellektni rivojlantirish usullarini tadqiq etishgan.

PISA va PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlarida o'quvchilarning matnni tahlil

(PhD) ... diss. – Toshkent, 2019.; Tillayeva R. Adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn ustida ishlash metodologiyasini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida): Ped. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Namangan, 2025. – 230 b.; Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиш усуллари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 97 б.; Жўраев Н. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда ўқиш мотивларини шакллантиришнинг психологик хусусиятлари: Пед. фан. б. фалс. док.(PhD) ...дисс.– Тошкент, 2009. – 160 б.

⁴ Туракулова О. Адабий таълим жараёнида академик лицей ўқувчиларида мутолаа маданиятини ривожлантириш технологияси: Пед. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2020. – 159 б.; Юсуфжонова Н. Туркий халқ эпосларини киёсий-типологик ёндашув асосида ўқитиш технологияси: Пед. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2023. – 130 б.; Nurmuhammadov J. Umumiy o'rta ta'lim tizimida adabiy laboratoriyalar yaratishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. – Toshkent, 2024. – 152 b.; Кадирова Н. Адабий таълимда ўқувчиларнинг танқидий тафаккурини ривожлантириш муаммоси: Пед. фан. б. фалс. док.(PhD)...дисс. – Тошкент, 2024. – 160 б.; Inomjonova S. O'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda fantastik asarlardan foydalanish metodikasi: Ped. fan. b. fals. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 30 b.; Elboyeva M. Bolalar adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish: Ped. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2024. – 160 b.

⁵ Рез З.Б. Методика преподавания литературы. – М.: Просвещение, 1977; Гальперин П.Я. Психолого-педагогические проблемы профессионального обучения. – М.: МГУ, 1979. – 208 с.; Тараносова Г. Анализ художественного текста в системе подготовки учителя русского языка и литературы в национальной школе: Дисс. ... док. пед. наук. – М., 1991; Безносов Э. и др. Большой справочник для школьников и поступающих в вузы. – М.: Дрофа, 2002. – 162 с.; Марьяна О. Б. Методика внутритекстового сопоставительного анализа на уроках литературы в 9 классе: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М., 2003. – 172 с.; Tattimbetova Zh. O. at al. Comparative analysis of literary text as a tendency in modern school education // Journal of Pedagogical Sciences – 2020. Vol. 63. – № 2. – P. 130–136.

⁶ Bloom, P. How children learn the meanings of words. Cambridge, MA: MIT Press.2000.; Smuck M. Reading is thinking: Improving reading comprehension using reading strategies, ProQuest Dissertations Publishing, 2009.; Gardner J.E., Diaz J. Reading and writing about literature. – Bedford/St. Martin's, 2016. – 228 p.; Adler J.M., Van Doren Ch. Kitoblar qanday o'qiladi? / J. Qodirov tarjimasi – Yangi asr avlodi, 2022. – 480 b.; Sinaga T., Kadaryanto B., Aulia N. Indonesian High School Students' Critical Thinking and Literary Text Comprehension // ELE Reviews: English Language Education Reviews. 2023. Vol. 3. – №. 2. – P. 155–171; Dera J. Students' Perceptions of the Benefits of Literary Reading in School and Leisure Contexts // Education Sciences. 2025. Vol. 15. – № 5. – P. 580.

qilish qobiliyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunday bo'lsa-da, aynan 5–7-sinf o'quvchilarining badiiy tahlil layoqatini shakllantirish muammosi metodik jihatdan kam tadqiq qilingan, tahlil layoqatini shakllantirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tili va adabiyotini o'qitishning zamonaviy metodikasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 5–7-sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

5–7-sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini aniqlashtirish;

5–7-sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini takomillashtirish;

5–7-sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish jarayoniga sun'iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish yo'llarini aniqlash, uning samaradorligiga oid metodik ta'minot ishlab chiqish;

5–7-sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 5–7-sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent shahri, Farg'ona, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlaridagi maktablardan 902 nafar o'quvchi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini 5–7-sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda suhbat, so'rovnoma, tasniflash, tavsiflash, umumlashtirish, kuzatish, pedagogik tajriba o'tkazish, qiyoslash, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

5–7-sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning konseptual-metodik asoslari milliy va ilg'or xorijiy adabiy ta'lim tajribasi hamda me'yoriy hujjatlar retrospektiv tahlil asosida dalillanib, mazkur layoqatning psixopedagogik determinanti sifatida motivatsion, kognitiv va amaliy komponentlari, baholash indikatorlari hamda rivojlantirish bosqichlari aniqlashtirilgan;

5–7-sinf o'quvchilarining badiiy matnni idrok etish imkoniyatlari yosh xususiyatlari va kognitiv rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq tizimlashtirilgan; bunda o'spirinlik davri psixologiyasining badiiy-estetik tafakkur dinamikasiga ta'siri hamda ta'limiy muhitning fasilitatorlik funksiyasi eksperimental metodlar asosida takomillashtirilgan;

adabiy ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya

qilishning adaptiv-metodik imkoniyatlari asosida individual ta'lim trayektoriyasini ta'minlovchi generativ topshiriqlar, vizual-semantik materiallar va gamifikatsiya elementlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil tahlil ko'nikmalarini optimallashtirishga doir metodik ta'minot ishlab chiqilgan;

5–7-sinf o'quvchilarida tahlil layoqatini shakllantirishning variativ texnologiyasi badiiy matn interpretatsiyasiga yo'naltirilgan “Qahramon bilan muloqot”, vizualizatsiya usullari, “Tahlil, anglash, tasavvur” kognitiv algoritmi hamda “Komiksli ssenariy yarat” kabi innovatsion yondashuvlarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar tizimiga kompleks qo'llash mexanizmlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

5–7-sinf adabiyot darslarida diskurs-tahlil metodikasi asosida o'quvchilarning badiiy matn ustida ishlash layoqatini shakllantirishga doir uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

“Umumta'lim maktablarining 5–6-sinf adabiyot darslarida IT texnologiyalarini qo'llash metodikasi” (№ DGU 49975) nomli metodik qo'llanma yaratilgan (hammualliflikda);

o'quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha interaktiv dars ishlanmalari yaratilgan;

tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim tizimida “Adabiyot o'qitish metodikasi”, “Badiiy tahlil asoslari” fanlari o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amal qilingan yondashuvlar, qo'llangan usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, muammo yuzasidan respublika hamda xorijiy olimlarning g'oyalariga, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalariga tayanilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitish metodikasiga oid manbalardagi badiiy asarlarni tahlil qilishga doir qarashlarning o'rganilgani hamda metodik asoslari aniqlangani; tadqiqot jarayonida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish yuzasidan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar asosida tavsiyalar hamda innovatsion usullar ishlab chiqilgani, sun'iy intellekt texnologiyalarini adabiy ta'limga integratsiyalash imkoniyatlari o'rganilgani; mavzu doirasida tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, badiiy asarni tahlil qilishga doir ta'lim mazmuni va usullarining samaradorligi aniqlangani, matematik va statistik tahlil amalga oshirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida badiiy asar matni ustida ishlash mazmunini kreativ yondashuvlar asosida tashkil etish, tadqiqot asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar adabiyot o'quv faniga oid darsliklar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar hamda zamonaviy didaktik materiallarni yaratishda foydalanish imkonini beradi;

o'quvchilarning axloqiy-estetik tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida metodik tavsiyalar sifatida tatbiq etish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Adabiy ta'limda o'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishga doir ilmiy natijalar asosida:

5–7-sinf o'quvchilarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning konseptual-metodik asoslari milliy va ilg'or xorijiy adabiy ta'lim tajribasi hamda me'yoriy hujjatlar retrospektiv tahlil asosida dalillanib, mazkur layoqatning psixopedagogik determinanti sifatida motivatsion, kognitiv va amaliy komponentlari, baholash indikatorlari hamda rivojlantirish bosqichlarini aniqlashtirishga doir ilmiy xulosalardan 5–7-sinf adabiyot darsliklari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2025-yil 12-sentabrdagi № 01/11-6-627-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishga oid ilmiy-metodik qarashlar hamda didaktik materiallardan o'quv jarayonida intensiv foydalanish imkoniyatlari ortgan;

5–7-sinf o'quvchilarining badiiy matnni idrok etish imkoniyatlari yosh xususiyatlari va kognitiv rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq tizimlashtirib, o'spirinlik davri psixologiyasining badiiy-estetik tafakkur dinamikasiga ta'siri hamda ta'limiy muhitning fasilitatorlik funksiyasini eksperimental metodlar asosida takomillashtirishga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan IL-402104474 raqamli “Bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-sentabrdagi №01/4-4194-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarda estetik, kognitiv, tanqidiy, struktural va tarixiy-biografik tafakkurni rivojlantirishga doir nazariy va metodik qarashlar boyitilib, badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini tizimli shakllantirishga erishilgan;

adabiy ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilishning adaptiv-metodik imkoniyatlari asosida individual ta'lim trayektoriyasini ta'minlovchi generativ topshiriqlar, vizual-semantik materiallar va gamifikatsiya elementlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil tahlil ko'nikmalarini optimallashtirishga doir ishlab chiqilgan metodik ta'minotdan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida 2024 – 2025-yillarda amalga oshirilgan № IL-662205522-raqamli “Umumta'lim maktablarining 5–6-sinf adabiyot darslarida IT texnologiyalarini qo'llash metodikasi” mavzusidagi olima ayollar innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2025-yil 9-sentabrdagi 01/09/355-son ma'lumotnomasi). Natijada sun'iy intellekt integratsiyasi orqali badiiy asarlarni tahlil qilish samaradorligi oshgan;

5–7-sinf o'quvchilarida tahlil layoqatini shakllantirishning variativ

texnologiyasi badiiy matn interpretatsiyasiga yo'naltirilgan "Qahramon bilan muloqot", vizualizatsiya usullari, "Tahlil, anglash, tasavvur" kognitiv algoritmi hamda "Komiksli ssenariy yarat" kabi innovatsion yondashuvlarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar tizimiga kompleks qo'llash mexanizmlariga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan RZ-202004165 "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 13-sentabrdagi №01/4-4195-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkuri, kitob mutolaasi va tahlilidagi o'ziga xos xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik materiallar mazmuni innovatsion usullar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 169 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari tavsiflangan, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilgani, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda mavzuning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etilgan; o'quvchilarda adabiy matnni anglash, tahlil va talqin qilish faoliyatini tarkib toptirishga doir psixologik, pedagogik hamda metodik talablar o'rganilgan; tahlil layoqatini shakllantirishning mavjud holati va pedagogik muammolari bayon etilgan, ushbu jarayonni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Bobning "*O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning mazmun-mohiyati*" deb nomlangan birinchi paragrafida badiiy asarlarni tahlil qilish tushunchasi, uning o'quvchi tafakkuri rivojida o'rni, adabiyot ta'limidagi ahamiyati izohlangan. Milliy va xorij metodikasidagi qarashlar

o'rganilgan, "layoqat", "kompetensiya" tushunchalarining mazmuniga aniqlik kiritilgan.

Zamonaviy texnologiyalar va raqamli muhit taraqqiy etgan davrda o'quvchi ruhiyatini asrash, unda insoniylik, estetik sezgirlik, axloqiy mas'uliyat hamda ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar – inson tafakkuri va estetik dunyoqarashi mahsuli bo'lib, unda hayot hodisalari badiiy tasvir vositasida ifodalanadi. Badiiy asar tahlili esa uning mazmun-mohiyatini, poetik strukturasini, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini anglash va talqin qilish jarayoni hisoblanadi. Bu tushunchaning mazmun-mohiyati olimlar tomonidan turlicha ta'riflangan. Jumladan, A.Zunnunov uning ma'noni ochish va hissiy tajriba yaratishdan iborat jarayon ekaniga e'tibor qaratib: "Badiiy asarni tahlil qilish adabiyot darslarida muhim o'rin tutadi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad asar g'oyaviy mazmunini ochish, o'quvchilarda emotsional hissiyot uyg'otishdir"⁷, – deydi. Q.Yo'ldoshevning yozishicha, "Adabiy asarning yozilgan hamda tekshirilayotgan vaqtdagi badiiy va hayotiy mantig'i hamda estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan intellektual-hissiy faoliyat badiiy tahlildir"⁸. Bunda u jarayonning inson aqli va tuyg'ulari bilan bog'langaniga, asarning ichki va hayotiy asoslari hamda badiiy go'zalligini anglashga qaratilganiga urg'u beradi.

Amerikalik olim Celen Kusch esa: "Adabiy tahlil harakatiga yaxshiroq o'xshatma – tergovchilik ishi. Badiiy yoki haqiqiy detektiv ishida tergovchi matn oladi. Boshlang'ich manzara hali anglanmagan to'liq hikoyaning faqat ustki qismidir. Tergovchi esa manzarani bo'laklarga ajratib, har bir detalni diqqat bilan tekshiradi, ko'proq kontekst yig'adi va ish ichidagi motivlar, oqibatlar, hatto inson xulqi yoki adolat tabiati haqidagi xulosalarni topadi. O'quvchilar uchun matn – yechish kerak bo'lgan sir, so'zlar esa dalilning asosiy manbayi"⁹ deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, olim bunda chiroyli bir o'xshatish qiladi, ya'ni ikki jarayondagi shaxs ham "haqiqatni tiklaydi", ammo u biri badiiy, ikkinchisi real voqea haqiqatini izlashini e'tibordan chetda qoldiradi. Chunki badiiy asar tahlilida bir necha to'g'ri talqin bo'lishi mumkin, tergovda esa faqat bitta aniq versiya mavjudligi talab etiladi. Shu bois matn ustida ishlayotganda dalillar, isbotlar kutib uni hissiz hodisaga aylantirib qo'ymaslik lozim.

Bizningcha, badiiy asar tahlili – bu matnning yashirin qismini kashf etish san'ati. Muallif singari tajriba o'tkazish, u aytgan narsani emas, aytmaganini ham eshitish jarayonidir. Shuningdek, har bir kitobxonning o'qilgan asar orqali o'z fikrini shakllantirishi, uni o'z qarashlari va bilimi asosida tushunishi, anglashi hamda izohlashidir. Matnning g'oya va ma'no qatlamlariga singib, yangi mantiq va badiiy go'zallikni yaratish, hayotni, o'zligini, o'zini idrok etish, obrazlarning ichki dunyosini tushunish asnosida esa atrofdagi insonlar dardini, qalbini his qilish hamda adabiy namunani bugungi kun bilan qanday bog'lanishini ko'ra bilish ham nazarda tutiladi. Mazkur layoqatning shakllanishi mazmun, g'oya, obrazlar va badiiy vositalar kabi tahlilning konseptual elementlari, yosh, idrok darajasi,

⁷ Зуннунов А., Эсонов Ж. Мактабда адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 39.

⁸ Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б. 42.

⁹ Kusch, C. Literary Analysis: The Basics. – Milton Park; New York: Routledge, 2016. – P. 28.

motivatsiya kabi o'quvchi shaxsining psixologik holatlari va metodlar, topshiriqlar, baholash tizimi kabi didaktik tashkil etilish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikdan iboratdir.

Badiiy asar tahlili o'quvchining *hissiy-intellektual* rivojlanishiga xizmat qilib, unda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Asar qahramonlari bilan bog'lanish, ularning ichki kechinmalari va harakat motivlarini anglash, hissiyotlarini tushunish, voqealar rivojini chuqur his etish orqali inson nafaqat jismonan, balki ma'naviy jihatdan ham yuksalishga intiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, badiiy asar tahlili o'quvchini nafaqat ilmiy, balki estetik va axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydigan *muhim pedagogik jarayon* bo'lib xizmat qiladi. Uni shunchaki tahliliy faoliyat sifatida emas, balki idrok etish bilan chambarchas bog'liq *psixologik jarayon* sifatida ham talqin qilish mumkin.

“O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish pedagogik muammo sifatida” deb nomlangan ikkinchi paragrafda adabiy ta'lim jarayoni va uning metodik asoslari o'rganilgan. Unga ko'ra adabiyot o'qituvchisining metodik qarashlarida an'anaviy yondashuvlar saqlanib qolishi, o'quvchi badiiy matnni mustaqil tahlil qila olmasligi, raqamli muhit va axborot oqimining fikrlashga ta'siri hamda dars mashg'ulotiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali qo'llanmasligi kabi omillar aniqlanib, tasniflangan.

Pedagogik muammo bu didaktik jarayonda hal etilishi zarur bo'lgan, o'quvchida belgilangan talablarni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan vaziyatdir. Bu jahon adabiy ta'limida o'rganuvchini darslik matni bilan cheklamasdan, uni mustaqil mutolaa va o'z tafakkurini rivojlantirishini rag'batlantirishga qaratilgan “yoqimli o'qish” (“reading for pleasure”)¹⁰ masalasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan bir qatorda samarali o'quv tahlilini amalga oshirish uchun dastlab tanqidiy fikrlash va yuqori kognitiv ko'nikmalarini kuchaytirish, texnologiya, sun'iy intellekt integratsiyasi, o'quvchilarning badiiy asarni o'qishga bo'lgan motivatsiyasi va o'z-o'zini ifodalash imkoniyatlari muhim tendensiyalar sifatida ko'rinmoqda.

Metodika tarixida esa “Uzoq yillardan beri badiiy asar mutolaasi va tahlili an'anaviy estetik tamoyilga asoslangan. Adabiyot darsliklarida keltirilgan badiiy asarlar yoki ulardan olingan parchalar tahlili o'quvchi e'tiboriga tayyor holda havola etilgan”¹¹. Natijada o'rganuvchi, asosan, mavjud talqinlarni qabul qiluvchi passiv subyekt sifatida namoyon bo'lgan. Bu esa ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy mushohada yuritish hamda shaxsiy munosabat bildirish ko'nikmalarining yetarli darajada tarkib topishiga to'sqinlik qilgan. Ushbu kamchiliklar oqibatida badiiy asarlarni chuqur va ongli tahlil qilish layoqatini shakllantirish masalasi bugungi kunda o'zini namoyon etmoqda.

O'quvchilarning adabiy-tahlil ko'nikmalarini shakllantirishda “badiiy matn ustida ishlash usullari adabiyot metodikasining azaliy muammolaridan sanalishi”¹²

¹⁰ Dera J. Students' perceptions of the benefits of literary reading in school and leisure contexts // Education Sciences. 2025. Vol.15. – № 5. – P. 580.

¹¹ Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 68.

¹² Matchonov S. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg'unligi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2020. – № 7. – B. 8.

olimlar tomonidan ta'kidlanadi. Jumladan, adabiyotdan "Milliy o'quv dastur"larida o'quvchilarning badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishga e'tibor qaratilayotgani, yangilanayotgan "Adabiyot" darsliklarida o'quv tahliliga oid ma'lumotlar berib borilayotgani badiiy asarlar matni ustida ishlash muhim pedagogik muammo sifatida ko'tarilganini anglatadi.

Garchand mavjud me'yoriy hujjatlar va darsliklar yangilanib, badiiy asarlarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, o'quvchida ularga munosabat bildirish, badiiy til vositalarini farqlash, obrazlarni tahlil qilish va asarga shaxsiy munosabat bildirish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, 5–7-sinf o'quvchilarining aksariyati adabiy bitiklarni mustaqil tahlil qila olmaydi, asosan ularni yod olish, o'qituvchi va sinfdoshlarining tahlili asosida fikr yuritishga moyildir. Bu yoshdagi ta'lim oluvchilar badiiy tafakkur vositalarini ifodalashda qiynaladi, shu bois adabiyot darslarida *tahlil turlicha emas, balki bir xillik* kasb etib, o'qituvchining asar yuzasidan qilgan xulosasiga asoslanadi.

Mazkur masalani yuzaga keltirgan quyidagi omillarga alohida to'xtalish joiz:

1. Zamonaviy ta'lim o'quvchidan badiiy asarni o'qish, tushunish, tahlil qilish hamda uning estetik va ijtimoiy-ma'naviy mazmunini anglashni talab qilmoqda. Vaholanki, ko'plab o'rganuvchilar asarni voqealar ketma-ketligi sifatida qabul qilib, uni chuqur tahlil qila olmaydi. Bu esa ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi muammoga aylanmoqda.

2. O'quvchilarning ma'lum qismida tafakkur faoliyati yetarli darajada rivojlanmagan, mantiqiy, tanqidiy va tahliliy fikrlashning tarkib topmaganligi bois tayyor ma'lumotni qabul qilishga ko'nikib qolish. Natijada bu holat mustaqil tahlil layoqatini shakllantirishda muammo sifatida ko'rinadi.

3. Pedagogik metodlarning hanuzgacha takomillashmagan. Darslarda hamon an'anaviy yondashuvning ustuvorligi, asar tahlili o'qituvchining tushuntirishi va o'quvchining voqealarni so'zlab berishi bilan yakun topishi. Natijada o'quvchining estetik didi, mustaqil dunyoqarashi oqsab, o'zgaralar dardiga beparvolik, ruhiyatidagi beqarorliklar sifatida namoyon bo'lmoqda.

4. Mazkur holatda raqamli muhitning ham ta'siri sezilmoqda. Saviyasiz, qisqa va tezkor axborotga o'rganib qolgan o'quvchi uchun keng qamrovli badiiy asarlarni to'liq o'qib chiqish, ularni tahlil qilish og'irlik qilmoqda. Achinarlisi, bu holat darsliklarda berilgan roman qismlari tugul, hatto hikoyalarni o'qishda ham kuzatilmoqda. Shuning uchun badiiy tahlil jarayoni adabiyot ta'limida pedagogik muammo sifatida yuzaga chiqmoqda.

5. Badiiy asarlarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati yuqori. Agar o'quvchida ularni tushunish va tahlil qilish jarayoni oqsasa, ta'limning tarbiyaviy samarasini ham pasaytiradi. Bu omil ham badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishni muhim masala sifatida namoyon etmoqda.

O'quvchilarning badiiy asarlarni tahlil qilishdagi faol ishtiroki ko'pincha dars soatlarining cheklangani, sinfdagi o'quvchilar sonining ortiqligi, yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olinmasligi, savol-topshiriqlarning tahlilga olib bormasligi va boshqa ko'plab omillar sabab yuzaga chiqmay qolmoqda. Oqibatda

o‘quvchilar matn mazmun-mohiyatini idrok etishda qiyinchiliklarga uchramoqda. Xususan, o‘tkazilgan dastlabki so‘rovnoma natijalari ham mazkur muammoning dars amaliyotida mavjudligini tasdiqlaydi. Bu esa yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish zaruratini, shuningdek, ta‘lim oluvchining mustaqil, tahliliy va ijodiy tafakkurini rivojlantirib, “faol o‘quvchi – faol shaxsga” yo‘naltirilgan metodik tizimni ishlab chiqish masalasini o‘rtaga qo‘ymoqda.

Pedagogik nuqtayi nazardan, badiiy asar ustida ishlashda o‘quvchining tahlil faoliyatini tashkil etish uchun o‘qituvchi tomonidan muhitni motivatsion tayyorlash, tahlilga undovchi savollardan foydalanish, matnni idrok etishda hissiy-psixologik holatni hisobga olish kabi maqsadli shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

O‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish nafaqat o‘quv jarayoni, balki tarixiy, madaniy va metodik jarayon bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab pedagogik muammo sifatida ko‘rilishi zarur. Bu jarayonda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, asar mazmunini anglash va uni talqin qilish qobiliyatini rivojlantirish, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi va metodik tayyorgarligi asosiy omil hisoblanadi.

Ishning ikkinchi bobida **“O‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish metodikasi”** yoritilgan. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, sun‘iy intellekt vositalari va innovatsion metodlar orqali tahlil ko‘nikmalarini tarkib toptirish usullari ko‘rib chiqilgan. O‘quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishga qaratilgan bosqichma-bosqich metodika, unga asoslangan topshiriq va yondashuvlar bayon etilgan. Metodika tarixi va jahon adabiy ta‘limidagi badiiy asarlarni tahlil qilishga oid qarashlar o‘rganilib, samarali deb topilgan usullarni o‘quvchi saviyasi va mentalitetimizga moslagan holda qo‘llash mumkinligi tavsiya etilgan.

Bobning *“Badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishda sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish usullari”* deb nomlangan birinchi paragrafida sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda tahlil layoqatini shakllantirish yo‘llari va adabiy ta‘limga integratsiyasi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda matn tahliliga oid savollarni avtomatik shakllantirish, obrazlar bo‘yicha suhbatli mashqlar tuzish, interaktiv testlar yaratish metodikasi asoslab berilgan. Jarayonda sun‘iy intellektga vosita sifatida yondashilib, uning imkoniyatlari doirasida individual va differensial topshiriqlarni qo‘llash yo‘llari tavsiya etilgan.

“Sun‘iy intellekt inson aqliga taqlid qila oladigan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiyaning bir sohasi hisoblanadi. “Bu soha odatda inson tafakkurini eslatuvchi fikrlash va o‘rganish tizimlari bilan bog‘liq. Sun‘iy ong doirasida siymolarni tanish, tabiiy til va nutqni tushunish, o‘quvchi qobiliyatlariga ko‘ra o‘rgatish, tashxislar qo‘yish va teoremlarni isbotlash dasturiy va texnik vositalari yaratiladi”¹³.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, uni *insondan tashqaridagi sun‘iy zehn va sun‘iy aql-idrok* deya tushunish mumkin. “Mazkur tushunchaning aniq ta‘rifi

¹³ BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi. Axborot kommunikatsiyalari texnologiyalari izohli lug‘ati. – Toshkent, 2010. – B. 219.

mavjud emas. Yangi ilmiy g'oyalar paydo bo'lishi bilan uning ta'rifi yana o'zgaradi"¹⁴. Endilikda faqatgina inson bajarishi mumkin bo'lgan vazifalarni amalga oshirib, uning ongiga taqlid qila oladigan, ixtirochi-mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan dasturga **sun'iy intellekt** deyiladi.

O'quvchilarning adabiy tahlil ko'nikmasini tarkib toptirishda uni ikki xil yo'nalishda o'rganishni tavsiya qilamiz:

1. Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish.

2. Sun'iy intellekt aks etgan asarlarni o'rganish va ularni tahlil qilish usullarini o'quvchiga o'rgatish.

Badiiy asarlar tahlilida sun'iy intellektdan foydalanish. Raqamli tafakkurdan ta'lim oluvchining adabiy tahlil layoqatini tarkib toptirish vositasi sifatida foydalanish mumkin. U o'ziga yuborilgan badiiy matn yuzasidan o'quvchi bilan muloqotga kirishadi. O'rganuvchining o'quv fani va asar tadqiqiga oid savollariga javob beradi, xatolarini to'g'rilaydi. Chuqur tahlil qilishga yo'naltiruvchi muammoli va interaktiv savol-topshiriqlar, rolli o'yinlar, dars va tadbir ssenariylarini ishlab chiqadi va shu orqali mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Multimediali kontent yordamida murakkab badiiy tushunchalarni o'quvchiga yanada tushunarli yetkazadi. Shuningdek, badiiy asarda ifodalangan qahramonlar portreti, voqea va tabiat tasvirlarini yaratish orqali o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Xususan, ChatGPT, Claude, Gemini va Perplexity AI kabi intellektual tizim ilovalari bevosita metodik vosita sifatida tahlil, talqin va tanqidiy baholash ko'nikmasini shakllantirishda ishtirok etadi. Grammarly, QuillBot va NotebookLM, Quizziz kabi texnologiyalar esa ushbu jarayonni bilvosita qo'llab-quvvatlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish jarayonida sun'iy intellektdan bir vosita sifatida foydalanish muayyan natijalarni ta'minlaydi. U o'qituvchi kabi fikrlashi, o'quvchi o'rnida esa topshiriqni bajarishi, badiiy asarni tahlil qilishi kerak emas. Maqsadimiz uning imkoniyatlaridan to'g'ri, unumli foydalana olishni o'rgatish, adabiyot darslarini yanada qiziqarli qilish, loqayd, ko'ngli dag'allashayotgan o'quvchini sun'iy intellekt imkoniyatlari orqali bo'lsa-da, badiiy asar olamiga qayta jalb qilish hisoblanadi.

Sun'iy intellekt aks etgan asarlarni o'rganish va o'quvchilarga ularni tahlil qilish usullarini o'rgatish. O'quvchilarda fantastik, sarguzasht hamda sun'iy intellekt aks etgan asarlarni o'qishga qiziqish uyg'otish, ularni tahlil qilish layoqatini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Chunki ta'lim oluvchi kelgusida qaysi kasbni egallashidan qat'i nazar bu turdagi asarlar unga yangi g'oyalar berib, bilim va fantaziyalar bilan boyitadi. Natijada badiiy to'qima, xayoliy uydirma bo'lgan narsalarning hayotdagi prototipini yaratadigan ixtirochi, dasturchilar yetishib chiqishiga zarur shart-sharoit yaratiladi.

Tajriba-sinov ishlarida R.Bredberining 6-sinf o'quv dasturida rejalashtirilgan "Bir kunlik yoz" asari mazmunini anglash va tahlil qilish o'quvchilar uchun

¹⁴ Bekmuratov Q. Sun'iy intellekt. – Toshkent: Aloqachi. 2019. – B.12.

murakkablik qilib, amalda yomg'irli Venera va undagi bolalar murakkab ichki olamini tushunishga bog'liq muammolar borligi aniqlandi. Bu masala o'qituvchilar bilan olib borilgan so'rovnoma va suhbatlarda ham o'z aksini topdi. Yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirish maqsadida esa sun'iy intellektning ChatGPT ilovasidan foydalanib, qahramon xarakteri va psixologiyasiga qaratilgan tahliliy material tayyorlandi. Tajriba davomida o'tkazilgan ushbu mashg'ulot o'quvchilarga obrazlar tizimini jonli idrok etish, paydo bo'lgan savollarga asar qahramoni tilidan javob olish, muloqot jarayonida uni jonlidek tasavvur etish hamda darsni an'anaviylikdan yangicha tarzda o'zlashtirish imkonini berdi. Shu sababli o'quvchilarni o'quv tahliliga yo'llovchi **“Asar qahramoni bilan suhbat”** metodi quyidagi algoritm asosida tashkil etiladi:

1-qadam. O'qituvchi tomonidan darslikda berilgan Margoga xos xususiyat va belgilar ChatGPT (<https://chat.openai.com>) ilovasiga kiritilib, ular asosida obraz tasvirini yaratish so'raladi. Bunda buyruqni to'g'ri berish muhim hisoblanadi. Aks holda vazifa noto'g'ri bajarilishi mumkin.

2-qadam. ChatGPTga quyidagicha topshiriq (prompt) beriladi: “Ushbu matnga QR-kod yasab ber. Sen Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” asaridagi Margosan. Venerada yashaysan, quyoshni sog'ingansan, sinfdoshlaring seni tushunmaydi. Endi bir o'quvchi bilan suhbatlash. Unga yuragingdagilarni ayt, uning savollariga javob ber”.

3-qadam. Yaratilgan obraz tasviriga QR-kod mazkur ilovaning o'zidan yoki Canva orqali biriktiriladi. Ular yordamida muayyan bir vazifani turlicha ko'rinishda tayyorlash mumkin. Xohishga ko'ra ushbu didaktik materiallardan biri tanlanadi.

4-qadam. QR-kodli topshiriqlar o'quvchilarga teng miqdorda tarqatiladi. Didaktik materiallar rangli printerda chop etilib, qattiq muqovali qog'ozning ikkala tomoniga yopishtirilsa, ular uzoq vaqt o'quv faoliyatiga xizmat qiladi.

5-qadam. O'rganuvchi QR-kodni skanerlaganda to'g'ridan to'g'ri ChatGPT ilovasiga kiradi. Ilovada sun'iy intellekt bajarishi uchun oldindan yuklatilgan (QR kodga kiritilgan) topshiriq paydo bo'ladi. Yo'nalish chizig'i bosilgach, ChatGPT buyruqni qabul qiladi va o'quvchi bilan asar qahramoni o'rtasida suhbat boshlanadi. Ta'kidlash kerakki, sun'iy intellekt o'zbek yoki jahon adabiyotidagi ba'zi asarlarni bilmasligi mumkin, shunda unga ushbu matn namunasi yuboriladi.

“Vizual fikrlash” (Visual Thinking Strategies, VTS) vizual tasvirlar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, vizual savodxonlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metodda o'quvchilar bilan badiiy matndagi tabiat tasviri yoki voqealarning kulminatsion nuqtasini, qahramon xarakteri hamda ruhiy holatidagi eng nozik jihatlarni ajratib chiqib, tahliliy, vizual materiallar tayyorlash mumkin. Bunda sun'iy intellekt yoki o'quvchilarning rassomlik qobiliyatiga suyanish o'rinlidir. Xususan, sun'iy intellekt yordamida 5–7-sinflarda Yanguli (N. Dumbadze, “Hellados”), “Santyago (E. Hemenguey, “Chol va dengiz”), “Yovvoyi echkilar va cho'pon” (Ezop) masalidagi cho'pon obrazlari yoki “Uch og'a-ini botirlar” ertagi qahramonlari tasvirini yaratish samaralidir.

Yuqoridagilar asosida o'quvchining badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish muhim metodik omil hisoblanishi ayonlashadi. Ularga asoslangan didaktik vositalar o'quvchini faol tahlilchi va talqinchi bo'lishga undaydi. Bunday vositalar an'anaviy metodlarni inkor etmagan holda adabiyot darslarini yangi imkoniyatlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

“Badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish texnologiyasi” deb nomlangan ikkinchi paragrafda “Men kimman?”, “Sim-sim ochil”, “Asar xaritasi”, “Uch xil sinov”, “Ha-yo‘q”, “Komiksli ssenariy yarat” topshiriqli o‘yinlaridan, “Men qobiliyatliman”, “Qahramon test savollari”, “...ga maktub”, “Alternativ hikoya tuz”, “Qiyosla”, “Sabab-oqibat” metodlari va tahlilga undovchi bir qancha topshiriqlardan foydalanilgan. An'anaviy “FSMU”, “Klaster”, “BBB” metodlaridan, “Blum taksonomiyasi”dan “Adabiyot” darsliklariga kiritilgan matnlar tahlilida qayta yangilangan va moslangan holda qo'llash tavsiya etilgan.

O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish texnologiyasi deganda bosqichma-bosqich tahlilga yo'naltiruvchi, interaktiv metodlar va zamonaviy vositalar asosida tashkil etilgan o'qitish tizimi tushuniladi. Bu texnologiya differensial yondashuv, vizual grafikalar, savol-javobli tahlillar, hamda multimodal materiallar va ijodiy topshiriqlar kabi vositalar orqali amalga oshiriladi.

O'quvchilar tahlil layoqatini shakllantirishda “Tahlil, anglash, tasavvur” (TAT) texnologik yondashuvi imkoniyatlariga tayanishning bir qator afzalliklari mavjud. Jumladan, 7-sinfda N.Norqobilovning “Oqbo‘yin” asari matni ustida ishlashda tahlil va talqin qilishga yo'naltiradigan samarali metodik tizim sifatida foydalanish mumkin. TAT – yosh va psixologik xususiyatlar inobatga olingan, bosqichma-bosqich tahlilga yetaklovchi savol-topshiriqlar, testlar yoki didaktik o'yinlardan iborat yondashuv. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tahlil bosqichida badiiy asar qismlarga ajratilib, undagi elementlar tahlil qilinadi. Shu tariqa matnning tuzilmasi va mazmuni tushuniladi.

2. Anglash bosqichida tahlil jarayoni va undan so'ng badiiy asarning umumiy mazmun-mohiyati, muallif g'oyasi va obrazlar tizimi idrok etiladi.

3. Tasavvur bosqichida o'quvchining shaxsiy qarashi, ijodiy yondashuvi orqali badiiy asarga o'z munosabatini shakllantirish maqsadi ko'zlanadi. Obrazli fikrlash va badiiy asarni xayolda jonlantirish orqali fantaziya kengaytiriladi. Bu bosqichda adabiy matn asosida rasm chizish, sahnalashtirish, alternativ davom yozish kabi kreativ topshiriqlar bajariladi (1-jadval):

1-jadval

“Tahlil, anglash, tasavvur” texnologik yondashuviga asoslangan topshiriqlar va bosqichlar bo'yicha baholash mezonlari

TAT bosqichlariga oid topshiriqlar	Baholash mezonlari
Tahlil bosqichi	
Matndan asosiy va ikkinchi darajali g'oyalarni aniqlang.	O'quvchi matndagi asosiy g'oyani aniq ifodalashi va qo'shimcha fikrlarni to'g'ri ajrata olishi.

Asar qahramon va epizodlarining ro'yxatini tuzib, har biriga qisqagina baho bering va voqealar rivojida ularning ta'sirini ayting.	Qahramon va epizodlarning ruhiyatini aks ettira olishi hamda syujetdagi rolini tahlillashi zarur.
Voqealar ketma-ketligini jadval yoki sxemada aks ettiring.	Voqealar ketma-ketligi, mantiqiy bog'lanishini tahlil qila olishi.
Anglash bosqichi	
Asar mazmunini grafikli konspekt yoki sxemada qisqa ifodalang.	Mazmun to'liq va qisqa bayon etilgani.
Eng ta'sirli jummalarni topib, ularning mazmun va g'oyaga ta'sirini izohlang.	Chuqur ma'noga ega iqtibos tanlay olganligi va uni vazifasiga ko'ra izohlay bilishi.
Muallif g'oyasini, ushbu asari orqali nima demoqchi bo'lganini yozing	Muallif g'oyasini aniq va mantiqan izohlay olganligi.
Tasavvur bosqichi	
Asar qahramonlaridan biriga maktub yozing.	O'quvchi ijodkorligi, qahramonning xarakteri va harakatlarini baholay olishi, uning ruhiyatini tushunishi
O'qigan asaringizga rasm chizing, sahna ko'rinishi syujetini tayyorlang yoki she'r, hikoya yozing.	Obrazli fikrlay olishi, ijodiylik darajasi.
Agar hikoya davom etadigan bo'lsa, qanday tus olishini o'zingiz o'ylab yozing. Asar voqealarini boshqa davr yoki joyga moslab qayta yozing yoki alternativ (muqobil) yakun yarating.	O'quvchining tasavvur kengligi, fantaziya va mantiq uyg'unligi baholanadi.

Differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqish o'quvchilarning tahlil layoqatini shakllantirish muammosiga samarali yechim bo'la oladi. Bunda o'qituvchidan sinchkovlik va mas'uliyat talab etiladi. Chunki aynan u sinfdagi tirishqoq, tortinchoq, dangasa hamda loqayd o'rganuvchilarni fahmlab, ularning o'zlashtirishi, qiziqishi va tahlil qilish layoqatiga qarab bitta mavzu asosida turli darajadagi topshiriqlar beradi. Bu usul orqali adabiy matn tahlilida har bir o'quvchi ishtirok etadi, ular o'zlashtirish imkoniyatiga qarab ijod mahsuliga turlicha yondashishadi. Jumladan, buni 7-sinf "Adabiyot" darsligida berilgan "Chol va dengiz" asari asosida quyidagi ko'rib chiqish mumkin:

1. Yuqori darajada o'zlashtiruvchi o'quvchiga: "Santyagoning ichki kechinmalarini, uning o'y-xayollarini, fe'l-atvorini tahlil qiling"; 2. O'rta darajada qabul qiluvchi ta'lim oluvchi uchun: "Santyagoning kuchli va ojiz, ijobiy va salbiy tomonlariga baho bering"; 3. Past o'zlashtiruvchi o'quvchiga esa: "Santyago kim? Butun syujet davomida u qanday harakatlarni amalga oshirdi?" kabi.

"Komiksli ssenariy yarat" topshiriqli o'yini badiiy asar g'oyasini ochish hamda matndagi eng ta'sirli o'rinlarni topib, tahlil qilish imkonini beradi. U asar syujetini qisqa kadrlar asosida tasvirlash, o'quvchi tomonidan izoh qo'shish, ijodiy yondashuv asosida qayta qurish mashqidir. Ayniqsa, mazkur mashg'ulot guruhdagi ta'lim oluvchilarni birlashtirish, ularda ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Inson va tabiat o'rtasidagi kurash, ozodlikning qadri, sadoqat va muhabbatning kuchi haqidagi g'oyani shakllantiruvchi "Lobo" hikoyasi (7-sinf) misolida ushbu o'yinli topshiriqni tashkil etish o'rinlidir. Bunda hikoyaning bosh

g'oyasiga olib boruvchi asosiy qismlarni tasvirli kadrlarda berish, izoh kiritish, tasvirlarni chizish yoki uni sun'iy intellekt yordamida yaratish topshirig'i beriladi. Ushbu topshiriqli o'yin o'quvchi saviyasi, o'zlashtirish darajasi asosida quyidagicha bajarilishi nazarda tutiladi:

4-kadr. Manzara: Oppoq va chiroyli bo'rining qopqonga tushishi. Oyog'ida tuzoq. Blanka o'ta go'zal, oppoq bo'ri bo'lib, meksikaliklar uni Loboning jufti haloli deb o'ylashadi. Unga Blanka deb nom qo'yishgan. Matn: Tuzoqqa tushgan Blanka ovchilarga burilib, jangari qiyofada uvillayapti. Uning uvullashi cho'ziq, iltijoli nido bo'ldi. Olisdan Loboning javob nidosi eshitildi. Blanka so'nggi marta uvulladi.

5-kadr. *Manzara*: Loboning Blankani izidan kelib qopqonga tushish jarayoni. Matn: Loboning ovozi mungli bo'ldi, avvalgidek qahr bilan emas, g'am-anduh bilan uvulladi. U go'yo jufti halolini yo'qlab: "Blanka! Blanka!" deyayotganday, aftidan ovchi va podachilar izini olib, Blanka o'ldirilgan joyni topib keldi. Yurakni ezuvchi, hazin-hazin uvullab qo'yaverdi.

7-kadr. *Manzara*: Tushkun tabiat dasht tasviri. Ovchilar Loboni olib ketishmoqda. Matn: "Mahobatli qari yirtqich! Behisob talon-tarojliklar qahramoni! Sen yana bir necha daqiqadan so'ng jonsiz jasadga aylanasan". Lobo ozodlikda o'ldi, ammo afsonaga aylandi.¹⁵

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Adabiyot darslarida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish samaradorligi**"ga bag'ishlangan. Unda tajriba-sinov ishlarining mazmuni hamda samaradorlik darajasi bayon etilgan.

Tadqiqotning birinchi paragrafida "*Badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishga oid tajribaviy tadqiq*" yoritilgan bo'lib, 5–7-sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan sinov materiallari hamda darslarni o'tkazish parametrlari tavsiflangan. Ikkinchi paragrafda esa "*Tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi*" yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlari pedagogik eksperimentning aniqlovchi, shakllantiruvchi hamda xulosalovchi bosqichlari asosida tashkil etildi. Tajriba-sinov maydonlari sifatida Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 148-, Yashnabod tumanidagi 204-, Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidagi 17-, Navoiy viloyati Nurota tumanidagi 22-, Qashqadaryo viloyati Muborak tumanidagi 1-maktablar belgilandi. Mazkur ta'lim muassasalaridagi 5–7-sinflardan jami 902 nafar respondent tanlab olindi. Ulardan tajriba guruhida 458 nafar, nazorat guruhida esa 444 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uch bosqichda amalga oshirildi:

2022–2023-o'quv yillarida belgilangan *aniqlovchi bosqich*da ishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi. Muammoga doir adabiyotlar o'rganildi, tadqiqot mavzusi nazariy jihatdan asoslandi, maqsad va vazifalari belgilandi. O'quv eksperimenti uchun materiallar tanlandi, savol-topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va uni aprobat siya qilish ishlari olib borildi.

2023–2024-yillarda *shakllantiruvchi bosqich* ishlari o'tkazildi. Bu jarayonda o'qituvchilar hamda o'quvchilar faoliyati kuzatildi, ular bilan so'rovlar o'tkazildi.

¹⁵ Mirzayeva Z., Jalilov K. 7-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent, 2022 – B. 38.

Har bir bobda yoritilgan nazariy yondashuvlar tajriba-sinov jarayonida amaliy jihatdan sinab ko‘rildi. Umumta’lim maktablarining adabiyot o‘quv dasturlari, yangi avlod darsliklari mazmuni tahlil qilinib, eksperiment materiallari yaratildi. Adabiy ta’limda o‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishga oid metodik vositalar ishlab chiqildi va dars jarayonlarida qo‘llanildi.

2024–2025-yillarda olib borilgan *xulosalovchi bosqich*da respondentlar o‘rtasida qayta so‘rovnomalar tashkil etilib, o‘quv eksperimenti davom ettirildi. Tahlil layoqatini tarkib toptirishga doir topshiriqlar sinovdan o‘tkazildi. Natijalari umumlashtirilib, ishlab chiqilgan metodika amalga tatbiq etildi. Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhining nazorat guruhiga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali o‘sganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshirildi. Xulosalar tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri olib borilganligini tasdiqlaydi (2-, 3-jadvallar).

2-jadval

O‘quvchilarda tahlil layoqatining shakllanganlik darajasi samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari

Mezonlar	Tajriba boshida						Tajriba yakunida					
	tajriba guruhi			nazorat guruhi			tajriba guruhi			nazorat guruhi		
	Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
Asar syujeti va g‘oyasini anglay olishi	19	67	140	18	65	137	255	182	19	120	220	104
Badiiy asardagi obrazlarni tasvirlay olishi	21	58	147	20	60	144	249	194	18	118	224	102
Asardagi badiiy tasvir vositalarini ajrata olishi	13	52	161	15	50	159	235	202	19	110	232	102
Muallif nuqtayi nazarini anglay olishi	17	63	146	16	61	144	251	186	19	122	218	104
Asar matni asosida muammoga yechim bera olishi	14	61	151	13	60	148	248	192	18	116	226	102
Badiiy tafakkur asosida xulosa chiqara olishi	15	64	147	14	62	145	262	184	15	128	212	104
Jami:	99	365	892	91	358	883	1431	1140	108	714	1332	618
O‘rtachasi:	17	61	149	15	60	147	250	190	18	119	222	103

3-jadval

O‘quvchilarning badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari

Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari
----------	------------------	--------------------------

		yuqori	o'rta	past
Tajriba guruhi	458	250	190	18
Nazorat guruhi	444	119	222	103

Tajriba-sinov ishlari natijalarini hisoblash, tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish darajalarini taqqoslash uchun o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida hisoblandi.

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i$$


$$\bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 m_i Y_i$$

Bunda:

X_i, Y_i – tajriba va nazorat natijasidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'lib, u 3, 4, 5 kabi qiymatlarni qabul qiladi; n_i, m_i – o'zlashtirish jarayonida olingan baholarning takrorlanishlar miqdori; n, m – tajriba-sinov ishlarida qatnashayotgan o'quvchilarning soni.

Yuqorida keltirilgan o'rtacha qiymatlarni chizma ko'rinishidagi grafikda ifodalasak, quyidagi holat vujudga keladi (1-rasm).

Grafikda qayd etilgan kesmalardan anglash mumkinki, bu tanlanmalar uchun mos o'rtacha qiymatlar ham $X > Y$ shartini qanoatlantirishini oldindan ko'rsatadi.



1-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining tahlil layoqati ko'rsatkichi (tajriba yakunida)

Yuqoridagi diagrammadan tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 11,64 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Laplas funksiyasi jadvalidan statistika uchun kritik nuqta t_{kn} quyidagicha aniqlanadi (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Laplas funksiyasi jadvali asosida statistika uchun kritik nuqta qiymatlari

t_{kn}	$F(t_{kn})$	t_{kn}	$F(t_{kn})$	t_{kn}	$F(t_{kn})$	t_{kn}	$F(t_{kn})$
0,00	0,000	0.33	0.25860	0.34	0.26614	0.35	0.27366
0.36	0.28115	0.37	0.28862	0.38	0.29605	0.39	0.30346
...	...	...	...	...	...	...	...
0.45	0.34729	0.46	0.35448	0.47	0.36164	0,48	0,36877

Tenglikdan $t_{kn}=03687$ ekanligini aniqlaymiz. Bundan baholashning ishonchli chetlanishlarini topsak. Ularning geometrik tasviri quyidagicha:



Demak, $\alpha=0,03$ qiymatdorlik darajasida aytish mumkinki, tajriba guruhida o'rtacha baho nazorat guruhidagi o'rtacha bahodan yuqori bo'lar ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Ushbu o'zlashtirish ko'rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$\frac{\bar{X} - \bar{Y}}{\bar{Y}} \cdot 100\% = \frac{4,506 - 4,036}{4,036} \cdot 100\% = \frac{0,47}{4,036} \cdot 100\% = 11,64\%$$

Yuqoridagi hisoblashlardan tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 11,64% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Demak, o'tkazilgan statistik tahlillar Toshkent shahri, Farg'ona viloyati, Navoiy viloyati, Qashqadaryo viloyatida tashkil qilingan tajriba-sinov maydonchalarida olib borilgan metodik faoliyat ijobiy natijalar berganligini, tajriba guruhlarida qo'llanilgan metodikalar samarador ekani haqida xulosaga kelish hamda erishilgan natijalarni boshqa muassasalarda ham ommalashtirish mumkinligiga asos yaratadi. Shuningdek, ushbu statistik tahlil natijalari o'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishda ijobiy siljishlarga erishilganini tasdiqlaydi.

XULOSA

1. Nazariy bilimlar va real hayot o'rtasidagi nomutanosiblik, o'qituvchilar faoliyatida an'anaviy yondashuvlar saqlanib qolgani, o'quvchilarning badiiy matnni mustaqil tahlil qila olmasligi, raqamli muhit va axborot oqimining fikrlashga ta'siri badiiy asar tahlili bilan bog'liq pedagogik muammodir. Shu nuqtayi nazardan o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, asar mazmunini anglash va uni talqin qilish qobiliyatini rivojlantirishga oid innovatsion texnologiyalar bu borada muhim omil hisoblanadi.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi badiiy asarlar tahlili bilan bog'liq mavjud holat o'quv materiallarini maqsadga muvofiq holda qo'llash, adabiy matnlarning o'quvchi qiziqishlari va dars samaradorligiga ta'sirini ko'zlab qo'llashni taqozo etadi. O'quvchilarda tahlil layoqatini shakllantirish bilan bog'liq muammo va bu borada uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash yuzasidan o'qituvchilar bilan suhbatlar, so'rovnomalar o'tkazish, dars jarayonlarini kuzatish, tadqiq etish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish masala bo'yicha tizimli ishlashni talab etadi.

3. O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirish ularning

ehtiyojlari, moyilliklari, yosh va psixologik xususiyatlari, o'quv dasturlari hamda zamonaviy ta'lim muhitining o'ziga xosligini inobatga olgan holda ish ko'rishni nazarda tutadi. Xususan, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan (ChatGPT, Quizizz, Gamma.ai) oqilona foydalanish o'quvchilarning badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishda samarali vositadir.

4. O'quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish bosqichma-bosqich yondashuvni joriy etishga chambarchas bog'liq. Bunda uch bosqichli "Tahlil, anglash va tasavvur qilish" texnologik yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning matn tuzilmasi va mazmunini tushunish, badiiy asar mohiyatini, muallif g'oyasi va obrazlar tizimini idrok etish, matnga o'z munosabatini bildirishga zarur shart-sharoit yaratiladi.

5. Differensial topshiriqlardan foydalanish o'quvchilar bilan alohida ishlashni taqozo etadi. Bunday xarakterdagi topshiriqlar muayyan sinfdagi turli darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun murakkabligi jihatidan tabaqalashtirilgan, ularning ehtiyojlariga moslangan tahliliy savol va topshiriqlarni ishlab chiqishning muhimligini ko'rsatadi.

6. Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida interaktiv platformalar, tahlilga yo'naltiruvchi dasturiy vositalar, sun'iy intellektli chatbotlar va boshqa raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil tafakkuri, muammo yechimiga ijodiy yondashuvi hamda atrofida gilar bilan sog'lom muloqot qilish malakalari rivojiga erishiladi.

7. Tahlil layoqatini shakllantirish orqali har bir o'quvchida mustaqil bilish faoliyati, ijtimoiy-fuqarolik, ijtimoiy-mehnat, maishiy, madaniy va dam olish kompetentligi kabi xususiyatlarni tarkib toptirish mumkin. Natijada ta'lim oluvchilar ijtimoiy va kasbiy hayotni uyg'un holda tashkil etishga mustahkam zamin yaratiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi *tavsiyalar* ishlab chiqildi:

o'quvchilarda tahlil layoqatini shakllantirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga doir metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;

adabiyot o'qituvchilari uchun badiiy asar tahliliga oid amaliy-metodik tavsiyalar va dars ishlanmalar jamlangan platforma yaratish;

badiiy asar mohiyatiga chuqur kirib boruvchi, tahlilga yo'naltiruvchi savollar bazasini yaratish;

maktablar tarkibida bolalar adabiyoti va jurnalistikasini rivojlantiruvchi media adabiy klublar tashkil etish;

badiiy asarlar asosida o'quvchilarning animatsion loyihalar yaratish amaliyotini yo'lga qo'yish.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL BASED ON THE
SCIENTIFIC COUNCIL No. DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 FOR
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES UNDER THE ALISHER NAVO'I
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE**

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE**

SHUKURBOYEVA OZODA NASRIDDIN QIZI

**DEVELOPING STUDENTS' ABILITY TO ANALYZE
LITERARY WORKS**

**13.00.02 – Theory and Methodology of Education and Training (Uzbek
Literature)**

**DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN PEDAGOGICAL SCIENCES
DISSERTATION ABSTRACT**

Tashkent – 2026

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation was registered by the Higher Attestation Commission under the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under registration № B2023.2.PhD/Ped5260.

The dissertation was carried out at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

The dissertation abstract has been published in three languages (Uzbek, Russian, English (summary)) on the Scientific Council's website (www.tsuull.uz) and on the "Ziyonet" Information-Education Portal (www.ziyonet.uz).

**Scientific
supervisor:**

Niyozmetova Roza Xasanovna
Doctor of pedagogical Sciences, Professor

Official opponents:

Qodirov Valijon Abdurahmonovich
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Yuldasheva Nilufar Abdullayevna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Leading institution:

Gulistan State University

The dissertation defense will take place at the one-time Scientific Council based on the Scientific Council No. DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 for awarding scientific degrees at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi on "____", 2026, at _____ O'clock. (Address: 100100, Tashkent, Yusuf Xos Hojib Street, House 103. Tel: (+99871) 281-41-44, Fax: 281-427-44, Website: www.tsuull.uz).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registered under No. _____). (Address: 100100, Tashkent, Yusuf Xos Hojib Street, House 103. Tel: (+99871) 281-41-44, Fax: 281-427-44, Website: www.tsuull.uz, Email: monitoring@navoiy-uni.uz).

The dissertation abstract was distributed on "____", 2026.
(Minutes of the register No. _____ dated "____", 2026).

S.Ashirboyev
Chairman of the one-time Scientific
Council for awarding scientific degrees, Doctor
of Philological Sciences, Professor

K.U.Pardayev
Scientific Secretary of the one-time
Scientific Council for awarding scientific
degrees, Doctor of Philological Sciences,
Professor

S.Muhamedova
Chairman of the Scientific Seminar under
the one-time Scientific Council for awarding
scientific degrees, Doctor of Philological
Sciences, Professor

INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. Globally, several trends are emerging in education: the integration of artificial intelligence and digital technologies into the learning process; the development of students' critical and creative thinking through the analysis of literary works; the application of a cultural-contextual approach to working with texts; and the drive to increase motivation for independent reading. Research is underway to introduce modern methodologies for teaching literature and to refine methods for analyzing literary works. In this process, developed countries such as the United Kingdom, Canada, and Australia widely use dialogic reading and multimodal analysis; the USA, Singapore, and South Korea employ metacognitive strategies; and countries like Finland and the Netherlands utilize constructivist approaches. Underlying these efforts is the particular importance of shaping students into individuals who think logically, possess refined taste, and are capable of intercultural communication.

Leading higher education institutions and research centers worldwide are conducting scientific research on working with literary texts, exploring ways to engage effectively with works of art, and implementing new methods of conveying them to students. In the information age, a complex psychopathological condition is being observed, described in scientific literature as the "Modern Mowgli Syndrome", which arises from the internet addiction of students with weak willpower and insufficiently developed independent thought. This creates a need to cultivate a broad worldview through the reading and analysis of literary works. Furthermore, amid the rapid development of information technologies, the increasing flow of information, and the influence of media on education, it is crucial to foster students' interest in reading, to work with literary text samples, and to develop their capacity for perception, comprehension, and analysis.

In our republic, significant attention is being given to enhancing the reading culture among youth and introducing modern approaches to the study of literary works. Specifically, in higher education institutions, future teachers are taught the fundamentals of literary analysis and reading culture as academic subjects. The "National Curriculum" for continuous education approaches literature instruction based on contemporary demands, the content of textbooks is being aligned with international educational standards, and it is being enriched with learning tasks related to the study of literary texts. This indicates the urgent need to develop students' ability to comprehend and analyze. The tasks aimed at "radically improving the quality of teaching Uzbek language and literature at all levels of the education system and training highly qualified personnel in this field"¹⁶ are crucial. They are essential for nurturing individuals who can solve any problem, think independently, deeply understand the human spirit and heart, and actively participate in socio-psychological relationships. Furthermore, they are vital for

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/6008663_2022.11.05.

advancing literary methodology and developing students' capacity to analyze works of art.

This dissertation research contributes, to a certain extent, to the implementation of tasks set forth in the following documents: Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5313 "On Measures for the Radical Improvement of the System of General Secondary, Secondary Specialized, and Vocational Education" dated January 25, 2018; No. PF-5712 "On Approval of the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030" dated April 29, 2019; No. PF-134 "On Approval of the National Program for the Development of Public Education for 2022–2026" dated May 11, 2022; and No. PF-51 "On Additional Measures to Increase the Efficiency of the Management System in Preschool and School Education" dated March 19, 2025; as well as the Resolutions No. 187 "On Approval of State Educational Standards for General Secondary and Secondary Specialized, Vocational Education" dated April 6, 2017; No. PQ-5234 "On Measures to Introduce a Special Regime for the Use of Artificial Intelligence Technologies" dated August 26, 2021; and other regulatory legal acts relevant to this field of activity.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic. The dissertation was completed in accordance with priority area I of the republic's science and technology development: "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and a democratic state".

The extent of study of the problem. The scientific research of our republic's methodist scholars, including A.Zunnunov, M.Mirkosimova, Q.Yuldoshev, and G.Xolboyeva, is dedicated to the analysis of literary works. They have studied the theoretical and methodological foundations of analysis, the formation of students' skills in text comprehension and expression, and the challenges of aesthetic education and developing emotional perception¹⁷. In their own perspectives, scholars such as S.Dolimov, S.Matchonov, B.Tukhliyev, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov, S.Kambarova, K.Mavlonova, R.Tillayeva, M.Tursunova, and H.Jurayev¹⁸ have addressed the scientific-theoretical foundations

¹⁷ Зуннунов А. Бадиий асарни ўқишни ўрганиш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – 37 б.; Зуннунов А. Бадиий асар таҳлили методикаси. Қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 120 б.; Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари: Пед. фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 1995. – 252 б.; Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.; Холбоева Г. Халқ оғзаки ижоди асарлари таҳлили орқали ўқувчиларда миллий кадриятларни шакллантириш тамойиллари: Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 123 б.

¹⁸ Долимов С. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 448 б.; Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш: Пед. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1998. – 308 б.; Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 157 б.; Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниёзметова Р. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари: Пед. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент: 2007. – 242 б.; Қодиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. д-ри (DSc) ... дисс.. – Наманган, 2019. – 271 б.; Kambarova S. Adabiyotni o'quv fani va san'at turi sifatida o'qitish metodologiyasi: Ped. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Toshkent, 2024. – 254 b.; Mavlonova K. Ona tili fanini

of teaching literature, the step-by-step organization of the analysis process, the application of interactive methods and innovative technologies, the reliance on a competency-based approach, and the development of the mechanism by which a student is personally influenced by a literary work. Furthermore, recent research also reflects modern approaches to the analysis of literary works¹⁹.

Scholars from CIS countries, including Z.Rez, P.Galperin, V.Golubkov, G.Belensky, V.Marantsman, M.Zaldiner, Y.Lotman, G.Taranosov, E.Beznosov, O.B.Marina, and others, have studied the theoretical-methodological and psychological-pedagogical foundations of analyzing literary works, methods for developing analytical skills in students, and the stages of text perception and interpretation²⁰.

Foreign scholars such as M.Smuck, P.Bloom, E.Janet, H.Gardner, J.Diaz, J.Adler, and C.Van Doren have conducted research to develop principles for the psychological, cognitive, aesthetic, and methodological analysis of literary works²¹. Specifically, Melissa Smuck focused on students' critical thinking and text comprehension skills in literary analysis; Paul Bloom explored empathy and cognitive processes in understanding a work of art; E.Janet examined the psychological approach within this process and the internal state of characters; Joanne Diaz concentrated on the analysis of poetic texts; and Howard Gardner, Mortimer John Adler, and Charles Van Doren investigated methods for the in-depth

adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019.; Tillayeva R. Adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn ustida ishlash metodologiyasini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida): Ped. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Namangan, 2025. – 230 b.; Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиш усуллари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 97 б.; Жўраев Н. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда ўқиш мотивларини шакллантиришнинг психологик хусусиятлари: Пед. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. – Тошкент, 2009. – 160 б.

